
Rishtonlik bokschi Osiyo o'yinlariga boradi

Joriy yilning 23 sentyabr - 8 oktyabr kunlari Xitoyning Xanchjou shahrida o'tadigan XIX Osiyo o'yinlarida yurtimiz sharafigini himoya qiladigan bokschilar nomi ma'lum bo'ldi. Boks bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi murabbiylar kengashining qaroriga ko'ra, Osiyo o'yinlarida 51 kilogrammda Hasanboy Do'smatov, 57 kilogrammda Abdumalik Xalakov, 63,5 kilogrammda Ruslan Abdullayev, 71 kilogrammda rishtonlik Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev, 80 kilogrammda To'rabek Habibullayev, 92 kilogrammda Lazizbek Mullojonov, +92 kilogrammda Bahodir Jalolov vatanimiz sharafigini himoya qiladi.

Terma jamoamizning qit'a o'yinlaridagi ishtirokini To'lqin Qilichev bosh murabbiy sifatida nazorat qilib borsa, unga kubalik Steyners Tissert Xuan Enrike, Li Echeveriya Xulio, Morales Montero Xesus Alberto, ham yurtlarimiz Rahmatjon Ro'zioxunov, Farrux Qilichev, Akmal Hasanov, Davron G'ofurov, Ziyatdinbek Toyg'onboyev, Yergali Yarashov murabbiy sifatida ko'maklashadi.

Eslatib o'tamiz, Osiyo o'yinlari bokschilar uchun "Parij-2024" Olimpiadasiga to'g'ridan-to'g'ri yo'llanma taqdim etishi bilan ahamiyatli. Shu sababli qit'a davlatlari Xanchjouda bo'ladigan boks musobaqalariga alohida e'tibor bilan yondashmoqda.

Mazkur musobaqada rishtonlik bokschi Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayevga omad tilab qolamiz.

2023-09-12 08:10:52